2026-yil
9-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

UDK 004.738.5:2:316.77

Abdumo‘minova Zuhra Farhod qizi,
Tohirova Hamidaxon Lutfulla qizi,
Maxamatova Madina Sirojiddin qizi,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 1-kurs magistrlari

Ilmiy rahbar: M.Z.Abdullayeva,
“Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish UNESCO” kafedrasi dotsenti

“UZ” DOMENIDAGI DINIY-MA’RIFIY SAYTLAR KONTENT TAHLILI (2026 yil ma’lumotlari asosida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston internet makonida faoliyat yuritayotgan “uz” domenidagi diniy-ma’rifiy veb-saytlarning jamiyat ma’naviy-ma’rifiy hayotidagi o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Xususan, islomiy-ma’rifiy yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan «islom.uz», «siyrat.uz», «mehrob.uz», «muslim.uz», «bukhari.uz», «religions.uz» hamda ma’rifiy-ijtimoiy yo‘nalishdagi «ziyo.uz», «oyina.uz», «oliymahad.uz» kabi saytlarning axborot tarqatishdagi roli, foydalanuvchilarga taqdim etayotgan kontent mazmuni, ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashdagi o‘rni va internet auditoriyasiga ta’siri tahliliy o‘rganildi. Shuningdek, mazkur saytlarning milliy internet segmentini rivojlantirish, diniy-ma’rifiy bilimlarni keng ommaga yetkazish hamda yoshlar ongida sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berildi. Tadqiqot davomida saytlarning funksional imkoniyatlari, yo‘nalishlari va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: “uz” domeni, kibermakon, veb-saytlar tahlili, diniy-ma’rifiy saytlar, “islom.uz”, “siyrat.uz”, “mehrob.uz”, “muslim.uz”, “bukhari.uz”, “religion.uz”, “ziyo.uz”, “oyina.uz”, “oliymahad.uz”.

КОНТЕНТ-АНАЛИЗ РЕЛИГИОЗНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ САЙТОВ В ДОМЕНЕ «UZ» (на основе данных за 2026 год)

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ религиозно-просветительских веб-сайтов, функционирующих в домене «uz» узбекистанского интернет-пространства, с целью определения их роли и значения в духовно-просветительской жизни общества. В частности, аналитически исследуются информационно-распространительские функции, содержание контента, место в духовно-просветительском мировоззрении и степень воздействия на интернет-аудиторию таких исламско-просветительских ресурсов, как islom.uz, siyrat.uz, mehrob.uz, muslim.uz, bukhari.uz и religion.uz, а также просветительско-социальных платформ -

ziyo.uz, oyina.uz и oliymahad.uz. Наряду с этим раскрывается значение данных сайтов в развитии национального интернет-сегмента, распространении религиозно-просветительских знаний среди широкой аудитории и формировании здорового мировоззрения в сознании молодёжи. В ходе исследования рассматриваются также функциональные возможности платформ, их тематические направления и уровень использования современных информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: домен «uz», киберпространство, анализ веб-сайтов, религиозно-просветительские сайты, islom.uz, siyrat.uz, mehrob.uz, muslim.uz, bukhari.uz, religions.uz, ziyo.uz, oyina.uz, oliymahad.uz.

CONTENT ANALYSIS OF RELIGIOUS AND EDUCATIONAL WEBSITES IN THE "UZ" DOMAIN (Based on 2026 Data)

Abstract. This article presents a scholarly analysis of religious-educational websites operating under the "uz" domain within Uzbekistan's internet space, examining their role and significance in the spiritual and intellectual life of society. In particular, the study investigates the information-dissemination functions, content profiles, ideological orientations, and influence on internet audiences of Islamic-educational platforms such as islom.uz, siyrat.uz, mehrob.uz, muslim.uz, bukhari.uz, and religion.uz, as well as enlightenment-oriented social platforms including ziyo.uz, oyina.uz, and oliymahad.uz. Furthermore, the article elucidates the significance of these websites in developing the national internet segment, disseminating religious and educational knowledge to a broad public, and cultivating a sound worldview among youth. The study also examines the functional capabilities of these platforms, their thematic orientations, and the extent to which they employ contemporary information and communication technologies.

Keywords: "uz" domain, cyberspace, website analysis, religious-educational websites, islom.uz, siyrat.uz, mehrob.uz, muslim.uz, bukhari.uz, religion.uz, ziyo.uz, oyina.uz, oliymahad.uz.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda internet insoniyat hayotining muhim axborot maydoniga aylanib, ta'lim, madaniyat, din va ma'naviyat sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston internet makonida faoliyat yuritayotgan "uz" domenidagi saytlar milliy axborot resurslarini shakllantirish, foydalanuvchilarga ishonchli va sifatli ma'lumot yetkazishda muhim o'rin tutadi. Xususan, «islom.uz», «siyrat.uz», «mehrob.uz», «muslim.uz», «bukhari.uz», «religions.uz» kabi diniy-ma'rifiy hamda «ziyo.uz», «oyina.uz», «oliymahad.uz» singari ilmiy-ma'rifiy saytlar ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish, yoshlarning axborot madaniyatini oshirish va milliy kontentni

rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada "uz" domenidagi saytlarning o'rni, ma'naviy-ma'rifiy faoliyati, kontent sifati va jamiyatga ta'siri tahlil qilinadi.

2026-yil holatiga ko'ra, "uz" domenidagi saytlar O'zbekiston internet makonining muhim raqamli infratuzilmasi bo'lib, milliy o'zlikni saqlash, biznesni rivojlantirish va davlat xizmatlarini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2026-yil mart oyida "uz" domenida ro'yxatdan o'tgan faol domenlar soni 150 mingdan oshib, yangi rekordni qayd etdi [1]. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2015-yilda qariyb 20 mingni tashkil etgan domenlar soni 2026-yilga kelib 153 mingdan oshgan. Bu 11 yil davomida qariyb 7,7 baravar o'sishni anglatadi [2].

"Uz" domenidagi saytlar elektron tijorat, onlayn xizmatlar va raqamli marketing bilan bir qatorda davlat boshqaruvi va elektron hukumat tizimida ham muhim o'rin tutmoqda. Shu jihatdan milliy domen global internet makonida O'zbekistonning raqamli identikligini ifodalovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston internet makonida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi saytlar ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, «ziyo.uz», «islom.uz», «muslim.uz», «bukhari.uz» kabi saytlar ilmiy, diniy va ma'naviy mazmundagi kontentni taqdim etib, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, elektron resurslarni rivojlantirish va o'zbek tilidagi internet kontentini boyitishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistondagi yirik diniy-ma'rifiy axborot portallaridan biri — **«islom.uz»** bo'lib, unga Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari tomonidan 2003-yilda asos solingan. Portalning asosiy maqsadi Ahli sunna va jamoa maslagi asosida sof Islom ta'limotini va to'g'ri aqidani keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat [3].

Portalda aqida, Qur'on, hadis, fiqh, siyrat, Islomning besh arkoni kabi bo'limlar mavjud bo'lib, materiallar o'zbek tilidan tashqari arab, rus va ingliz tillarida ham taqdim etiladi [4]. 2019-yilda "sof.uz" tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada «islom.uz» portali doirasidagi "Zikr ahlidan so'rang" loyihasining Telegram kanali "O'zbekistonning 2019-yildagi eng yaxshi Telegram-kanali" sifatida e'tirof etilgan [5].

Portalda diniy-ma'rifiy maqolalar, audio va videomateriallar, savol-javoblar hamda elektron kutubxona resurslari muntazam taqdim etiladi. 2018-yilda portalning mobil ilovasi yaratilgan bo'lib, unda namoz va ro'za jadvallari, qibla yo'nalishi, "Hilol" elektron kutubxonasi, "Zikr ahlidan so'rang" savol-javob xizmati va boshqa imkoniyatlar jamlangan [6]. 2023-yilga kelib «islom.uz», "Hilol e-book", "Oltin Silsila", "Qur'oni Karim", "Tafsiri Hilol", "Zikr va duolar" kabi qator mobil ilovalar ishlab chiqilgan [7].


«Islom.uz» portali raqamli texnologiyalar orqali diniy-ma'rifiy bilimlarni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Uning veb-interfeysi tizimli navigatsiya, qidiruv, til tanlash va turli mavzular bo'yicha bo'limlardan tashkil topgan. "Aqida", "Qur'on", "Hadis", "Tafsir", "Fiqh", "Siyrat", "Tazkiya", "Kutubxona", "Darslar", "Maqolalar", "Kurslar" va "Xizmatlar" kabi

bo‘limlarning mavjudligi foydalanuvchilarga zarur ma’lumotlarni tizimli ravishda izlash imkonini beradi.

Portalning rasmiy YouTube kanali ham diniy-ma’rifiy kontent tarqatishning muhim raqamli platformalaridan biridir. Kanalda Qur’on tafsiri, hadis, fiqh, aqida, axloq, oila va tarbiya masalalariga oid ma’ruzalar, suhbatlar, savol-javoblar hamda jonli efirlar muntazam e’lon qilinadi.

2026-yil 1–30-aprel kunlari «islom.uz» veb-saytida e’lon qilingan materiallar tizimli ravishda kuzatilib, kontent tahlili amalga oshirildi. Monitoring natijalariga ko‘ra, bir oy davomida jami **129 ta maqola** e’lon qilingan bo‘lib, ular mavzuviy jihatdan **14 ta asosiy bo‘lim** doirasida tasniflandi.

«Islom.uz» saytida joylangan maqolalarda quyidagicha bo‘limlar qamrab olingan (2026-yil 1-apreldan 30-aprel holatiga ko‘ra)**:**



Oylik monitoring natijalari «islom.uz» saytining kontent siyosati muvozanatli va ko‘p yo‘nalishli ekanini ko‘rsatadi. Unda diniy ilmlarning klassik yo‘nalishlari (fiqh, aqida, hadis, tafsir) bilan bir qatorda, tarixiy, axloqiy, ijtimoiy va zamonaviy axborotga oid materiallar uyg‘un holda berilgan. Bu esa saytni kompleks diniy-ma’rifiy va axborot saytsi sifatida baholash imkonini beradi.


«islom.uz» portalining tarkibiga kiruvchi ***“siyrat.uz”*** sayti diniy-ma’rifiy axborotni ommalashtirishda muhim media manba sifatida faoliyat olib bormoqda. Tadqiqot jarayonida saytning Telegram saytsidagi kontentlari monitoring qilindi hamda statistik-kontent tahlil usulidan foydalanildi [8]. Tahlil davomida sayt faoliyatida uchraydigan asosiy mavzular quyidagi kategoriyalarga ajratildi: Siyrat mavzulari; Salovat mavzulari; Makka davri; Hijriy oy va tarixiy kunlar; Duo; Tabrik; Konferensiya mavzulari. Har bir yo‘nalishning umumiy kontentdagi ulushi foizlarda hisoblab chiqildi. “SIYRAT.UZ” saytsining 2026-yil 1-yanvar sanasidan boshlab, 30-aprel oyiga qadar to‘rt oy mobaynida mavzular tahlil qilingan bo’lib, tahlil natijalariga ko‘ra, eng faol mavzular sifatida “Hijriy oy / Tarixiy kun” yo‘nalishi aniqlangan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, «SIYRAT.UZ» saytsi faqat diniy axborot tarqatuvchi sayt emas, balki diniy-ma’naviy kommunikatsiyani shakllantiruvchi media maydon sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, tarixiy kunlar va hijriy taqvim bilan bog‘liq materiallarning yuqori ulushi auditoriyaning diniy-madaniy identifikatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, sayt faoliyatida multimedia va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanilishi uning zamonaviy internet jurnalistikasi talablariga mos ravishda rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

“bukhari.uz” - O‘zbekistondagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining rasmiy veb-sayti bo‘lib, u Imom Buxoriy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish hamda islomiy-ma’rifiy qadriyatlarni keng ommaga yetkazishga xizmat qiluvchi muhim axborot saytsi hisoblanadi. Saytda markaz tashkil etilgan 2017-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda va 2017–2025-yillar davomida jami 12 286 ta material e’lon qilingan [9]. Saytda yangiliklar, maqolalar, hadis sharhlari, allomalar hayoti, qo‘lyozmalar, video va foto materiallar muntazam ravishda joylashtirib boriladi. Sayt faoliyati ilmiy-tadqiqot va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, unda “Imom Buxoriy hadislari”, “Kun hadisi”, “Moturidiylik”, “Imom Dorimiy” kabi maxsus bo‘limlar orqali islom ta’limoti va tarixiy meros keng yoritiladi. Ayniqsa, kutubxona bo‘limida 7345 dan ortiq kitob va nodir manbalar jamlangani saytning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, Telegram, Facebook, Instagram, YouTube va TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlarda ham faol targ‘ibot olib borilishi saytning auditoriyasi keng ekanini ko‘rsatadi.

2026-yil 1–30-aprel oralig‘ida amalga oshirilgan kontent-tahlil natijalariga ko‘ra, saytga bir oy davomida jami 70 ta maqola joylashtirilgan. Ushbu materiallar 13 ta mavzuviy yo‘nalish asosida tasniflangan bo‘lib quyidagi diagrammada keltirilgan.

«bukhari.uz» saytida joylangan maqolalarda quyidagicha bo‘limlar qamrab olingan (2026-yil 1-apreldan 30-aprel holatiga ko‘ra)**:**



Ushbu ko‘rsatkichlar tahlili kontent tarkibida yangiliklar va xalqaro yangiliklar yo‘nalishlari asosiy ulushni egallashini ko‘rsatadi. Bu sayt foydalanuvchilarni diniy-

ma'rifiy ma'lumotlar bilan bir qatorda dolzarb voqea-hodisalar bilan ham muntazam tanishtirib borayotganidan dalolat beradi. Qo'lyozmalar bo'limining yuqori o'rinda turishi esa tarixiy manbalarni o'rganish va ularni keng jamoatchilikka yetkazishga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

Umuman, **"bukhari.uz"** sayti O'zbekistondagi diniy-ma'rifiy va ilmiy saytlar orasida muhim o'rin egallaydi. Sayt orqali islomiy meros va tarixiy qo'lyozmalar targ'ib qilinib, ma'naviy qadriyatlar ommalashtiriladi hamda foydalanuvchilar dolzarb yangiliklardan xabardor qilinadi. Statistik va kontent-tahlil natijalari sayt mazmuni ko'p yo'nalishli, muvozanatli va ilmiy-ma'rifiy xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.


"mehrob.uz" sayti O'zbekistonning zamonaviy diniy-ma'rifiy axborot makonidagi yirik raqamli loyihalardan biri hisoblanadi [10]. Sayt 2017-yilda tashkil etilgan va O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan (Guvohnoma №1153). Loyiha asoschisi Sayyid Rahmatulloh Termiziy bo'lib, saytning asosiy maqsadi "Ahli sunna val jamoa" aqidasi asosida ilmiy-ma'rifiy bilimlarni zamonaviy usullar orqali keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat.


Sayt kontenti diniy, axloqiy va ijtimoiy mavzularni qamrab oladi. Unda fatvo va savol-javob, tafsir, hadis, ma'ruzalar, audio-video darslar, zikr va duolar bilan bir qatorda oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi, axloqiy qadriyatlar va jamiyatdagi dolzarb masalalarga oid materiallar ham muntazam yoritiladi.

Maqolalar "Ma'naviyat va tarbiya", "Shariat va ibodat", "Mulohaza", "Dolzarb mavzular", tafsir, hadis, islom tarixi va siyrat kabi yo'nalishlarga ajratilgan. Mazkur bo'limlar foydalanuvchilarning diniy bilimlarini kengaytirish va zamonaviy masalalarni diniy nuqtai nazardan anglashiga xizmat qiladi.

2026-yil aprel oyidagi kontent-tahlil natijalariga ko'ra, saytda jami 40 ta maqola va nasihat materiali e'lon qilingan. Ularning mavzuviy klassifikatsiyasi quyidagi diagrammada keltirilgan.

«mehrob.uz» saytida joylangan maqolalarda quyidagicha bo'limlar qamrab olingan (2026-yil 1-apreldan 30-aprel holatiga ko'ra)**:**





Saytning yana bir muhim jihati – uning saytlararo integratsiya tizimidir. Telegram, Instagram va YouTube kabi ijtimoiy tarmoqlarda millionlab auditoriyani qamrab olishi «mehrob.uz»ning zamonaviy media texnologiyalaridan samarali foydalanayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, qisqa videolar, iqtiboslar va jonli efirlar orqali diniy-ma’rifiy mazmunni sodda va ommabop shaklda yetkazish mexanizmi saytning auditoriya bilan samarali aloqasini ta’minlamoqda.

Xulosa qilib aytganda, «mehrob.uz» sayti O‘zbekistonning diniy-ma’rifiy media makonida muhim o‘rin egallaydi. Sayt ilmiy asoslangan diniy bilimlarni zamonaviy raqamli formatlarda taqdim etish orqali jamiyatning diniy savodxonligi va ma’naviy madaniyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Kontent-tahlil natijalari sayt kontenti muvozanatli, ko‘p yo‘nalishli va auditoriya ehtiyojlariga mos tarzda shakllantirilganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, dolzarb ijtimoiy masalalar, ibodat, ma’naviyat va axloqiy tarbiyaga oid mavzularning ustuvorligi saytning nafaqat diniy, balki tarbiyaviy va ijtimoiy-ma’rifiy vazifalarni ham bajarishini tasdiqlaydi. Shu jihatdan, «mehrob.uz» zamonaviy raqamli makonda islomiy ma’rifatni targ‘ib etuvchi samarali va barqaror media makon sifatida ahamiyat kasb etadi.

“muslim.uz” – O‘zbekiston musulmonlari idorasining rasmiy axborot sayti bo‘lib, O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy faoliyatni raqamli muhitda targ‘ib qiluvchi eng yirik internet resurslaridan biri hisoblanadi [11]. Sayt diniy boshqaruv tizimi, fatvo faoliyati, islomiy ta’lim, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot hamda jamiyatning diniy savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi ko‘p funksiyali media tizim sifatida shakllangan. Saytning asosiy maqsadi islom dini ta’limotlarini ilmiy asosda yoritish, “Ahli sunna val jamoa” aqidasi asosida diniy bilimlarni foydalanuvchilarga ishonchli ma’lumot manbaini taqdim etishdan iboratdir.


«muslim.uz» saytining bosh sahifasi foydalanuvchilar uchun qulay navigatsion tizim asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda namoz vaqtlari, yangiliklar slayderi, fatvo bo‘limi, video darslar va ijtimoiy tarmoqlarga tezkor havolalar joylashtirilgan. Sayt o‘zbek, rus, ingliz va arab tillarida faoliyat yuritishi uning xalqaro auditoriyani ham qamrab olishga intilayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, namoz vaqtlari, Qur’oni Karim, hadis, siyrat va islom tarixi bo‘limlari foydalanuvchilarning kundalik diniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Saytning eng yirik bo‘limlaridan biri maqolalar arxivi hisoblanadi. Tahlillarga ko‘ra, eski versiyada 25 mingdan ortiq maqola mavjud bo‘lib, yangi sayt ham doimiy ravishda yangilanib bormoqda. Maqolalar asosan beshta asosiy yo‘nalishga ajratilgan: ibodat va shariat amallari (40%), oila va axloq (25%), sahobalar va tarix (15%), rizq va baraka mavzulari (10%) hamda ma’rifiy-zamonaviy masalalar (10%). Bu ko‘rsatkichlar saytda diniy-amaliy masalalar bilan bir qatorda ijtimoiy va tarbiyaviy mavzularga ham katta e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi.

2017–2020-yillarda sayt asosan ibodat va diniy asosiy masalalarga oid 10 mingdan ortiq material joylashtirgan bo‘lsa, 2021–2023-yillarda pandemiya davri sabab oilaviy maslahatlar va ijtimoiy mavzular ustuvor yo‘nalishga aylangan. 2024-2025-yillarda esa mahalla, ijtimoiy islohotlar va zamonaviy ma’rifiy kontent

ulushi ortgani kuzatiladi. 2026-yilda esa bayramlar, muftiy ma'ruzalari va dolzarb diniy mavzular asosiy kontent sifatida shakllangan. Saytda har kuni 5-10 ta yangi maqola joylashtirilishi saytning doimiy faol axborot resursi ekanini ko'rsatadi.

«muslim.uz» saytida joylangan maqolalarda quyidagicha bo'limlar qamrab olingan *(2026-yil 1-apreldan 30-aprel holatiga ko'ra)***:**



Saytning yana bir muhim jihati - uning media integratsiya tizimidir. Telegram, Facebook, Instagram va YouTube orqali diniy-ma'rifiy kontent keng auditoriyaga yetkaziladi. Audio-video ma'ruzalar, Qur'on tilovatlari, namoz o'rgatish darslari hamda muftiy nutqlari foydalanuvchilarning zamonaviy media iste'moli talablariga mos ravishda taqdim etilmoqda. Bu esa «muslim.uz»ning nafaqat matnli axborot resursi, balki kompleks multimedia sayt sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, «muslim.uz» saytsi O'zbekiston diniy-ma'rifiy axborot makonining markaziy va eng yirik raqamli resurslaridan biri hisoblanadi. Sayt faoliyati orqali islom dini ta'limotlari, fatvolar, ma'naviy-tarbiyaviy qadriyatlar hamda diniy-amaliy bilimlar keng ommaga tizimli ravishda yetkazib kelinmoqda. Statistik-tahlil natijalari sayt kontenti ko'p yo'nalishli, ilmiy-ma'rifiy va auditoriya ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, aqida, fiqh, axloq va oilaviy tarbiya mavzularining ustuvorligi jamiyatda diniy savodxonlik va ma'naviy madaniyatni oshirishga qaratilgan yondashuv mavjudligini tasdiqlaydi.

"oyina.uz" sayti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida faoliyat yurituvchi ma'naviy-ma'rifiy raqamli sayt hisoblanadi [12]. Saytning asosiy vazifasi aholiga mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy jarayonlar haqida tizimli axborot yetkazishdan iborat. Saytda yangiliklar, maqolalar, multimedia, kutubxona, rasmiy hujjatlar va ma'naviy-ma'rifiy materiallar muntazam joylashtirib boriladi. Sayt tarkibida foto, video, audio, infografika, virtual sayohat, elektron va audio kitoblar kabi multimedia vositalarining mavjudligi uning zamonaviy raqamli media imkoniyatlaridan foydalanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, kutubxona bo'limida nazm, nasr,

drama, folklor, ilmiy va publitsistik materiallarning jamlangani saytning ma'rifiy ahamiyatini oshiradi.

«oyina.uz» saytida e'lon qilingan maqolalar asosan ma'naviyat, tarix, adabiyot, til, ta'lim-tarbiya, san'at, mafkura va falsafa kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, sayt faoliyati davomida jami 2198 ta maqola e'lon qilingan bo'lib, eng katta ulush adabiyot (23,38%) va tarix (23,11%) mavzulariga to'g'ri keladi. Bu holat saytda milliy meros, tarixiy xotira va adabiy qadriyatlarni targ'ib qilish ustuvor yo'nalish ekanini ko'rsatadi. Ma'naviyat, san'at, jarayon va til mavzularidagi maqolalar ham sezilarli ulushni tashkil etib, saytning ko'p yo'nalishli mazmunga ega ekanini anglatadi. Din va falsafa mavzularidagi materiallar ulushi nisbatan kam bo'lsa-da, ular umumiy ma'naviy-ma'rifiy kontent tarkibini to'ldirib turadi.

2026-yil aprel oyidagi statistik ko'rsatkichlar «oyina.uz» saytida tarix va adabiyot mavzularining yetakchi o'rin tutayotganini, qolgan yo'nalishlar esa qo'shimcha ma'naviy-ma'rifiy mazmunni shakllantirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.


Xulosa sifatida, «oyina.uz» sayti O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy axborot makonida muhim o'rin egallovchi saytlardan biri hisoblanadi. Sayt faoliyati orqali tarix, adabiyot, ma'naviyat va milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Statistik-tahlil natijalari sayt kontentida tarix va adabiyot mavzulari yetakchi o'rinni egallashini ko'rsatdi. Bu esa saytning milliy meros, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarni keng targ'ib qilishga yo'naltirilganini anglatadi. 2026-yil aprel oyidagi maqolalar tahlili ham tarix va adabiyot yo'nalishlari asosiy ulushni tashkil etganini ko'rsatdi. Ayrim mavzular bo'yicha maqolalar sonining kamligi yoki mavjud emasligi esa kontentning davriy ravishda ma'lum yo'nalishlarga yo'naltirilishini bildiradi. Shunga qaramay, sayt multimedia vositalari, elektron kutubxona va turli ma'naviy-ma'rifiy bo'limlari orqali foydalanuvchilarga keng qamrovli axborot resurslarini taqdim etmoqda. Shu jihatdan, «oyina.uz» nafaqat axborot sayti, balki ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni zamonaviy raqamli muhitda amalga oshiruvchi muhim media sayt sifatida ahamiyat kasb etadi.

"religions.uz" – sayti O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi 1992-yil 7-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitani tashkil etish to'g'risida" gi [14] Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Qo'mita mamlakatda vijdon erkinligini ta'minlash, diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, konfessiyalararo bag'rikenglikni mustahkamlash hamda din sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish vakolatiga ega davlat boshqaruvi organi hisoblanadi [13].

2026-yil aprel oyida Din ishlari bo'yicha qo'mita rasmiy veb-saytida e'lon qilingan materiallar tahlili shuni ko'rsatdiki, sayt faoliyati asosan diniy-ma'rifiy tadbirlarni yoritish, davlatning din sohasidagi siyosatini targ'ib qilish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va fuqarolarni dolzarb axborotlar bilan ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, saytda haj va ziyorat masalalari, tarixiy-madaniy meros,

yoshlar bilan ishlash hamda axborot xavfsizligi va raddiya mazmunidagi materiallar ham muntazam yoritib borilgan.

Religions.uz saytida joylangan yangiliklarga ko‘ra quyidagicha bo‘limlar qamrab olingan (2026-yil 1-apreldan 30-aprel holatiga ko‘ra)**:**



Kontent-tahlili natijalari sayt diniy-ma’rifiy axborotlarni aholiga yetkazish, diniy bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib qilish va din sohasidagi yangiliklarni yoritishda muhim axborot manbai ekanini ko‘rsatdi. Shuningdek, kibermakon, axborot xavfsizligi va zararli g‘oyalarga qarshi ma’rifiy targ‘ibot masalalariga ham e’tibor qaratilayotgani kuzatildi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, sayt diniy savodxonlikni oshirish, bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib qilish, diniy sohadagi davlat siyosatini yoritish va xalqaro aloqalar haqida axborot berish vazifalarini muntazam amalga oshirmoqda. Biroq kibermakondagi diniy-ekstremistik g‘oyalarga qarshi raddiyalar, yoshlar uchun interaktiv materiallar, analitik sharhlar va multimedia kontentlari nisbatan kam ulushni tashkil etadi. Shu sababli kelgusida ushbu yo‘nalishlarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Umuman, Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning rasmiy veb-sayti diniy-ma’rifiy va axborot-kommunikativ vazifalarni samarali bajaruvchi, jamiyatda diniy bag‘rikenglik va ma’rifatni targ‘ib qiluvchi muhim internet resurslardan biri hisoblanadi.

“Oliymahad.uz” sayti Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining rasmiy axborot sayti bo‘lib, institut faoliyati, ta’lim jarayoni, ilmiy-ma’rifiy materiallar va diniy sohadagi yangiliklarni yoritishga xizmat qiladi [15]. Sayt elektron axborot resursi sifatida 2011-yil 27-iyulda ro‘yxatdan o‘tgan (Guvohnoma №0680) [16].

Saytda institut yangiliklari, qabul jarayonlari, ilmiy konferensiyalar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, talabalar hayoti, professor-o‘qituvchilar faoliyati hamda diniy-

ma'rifiy maqolalar muntazam e'lon qilinadi. Shuningdek, institut tarixi, tuzilmasi, ta'lim yo'nalishlari va me'yoriy hujjatlar haqida ma'lumotlar beriladi. Shu jihatdan sayt diniy ta'lim, ma'rifat va yoshlarning diniy savodxonligini oshirishda muhim axborot resursi hisoblanadi.

2026-yil yanvar–aprel oylarida o'tkazilgan kontent-tahlilga ko'ra, saytda jami 17 ta maqola chop etilgan. Ular mazmuniga ko'ra fiqhiy, aqida va axloq, psixologiya va din integratsiyasi, ijtimoiy-ma'rifiy hamda tarixiy yo'nalishlarga ajratilgan. Eng katta ulush psixologiya va din, aqida va axloq hamda ijtimoiy-ma'rifiy mavzularga to'g'ri kelib, har biri 23,5 foizni tashkil etgan.


Maqolalarda diniy bilimlarni zamonaviy ijtimoiy va psixologik muammolar bilan bog'lash tendensiyasi kuzatiladi. Ruhiy holat, yo'qotish kechinmalari, oilaviy muammolar va shaxsiy tarbiya kabi masalalarning diniy nuqtai nazardan yoritilishi saytning ma'rifiy va tarbiyaviy yo'nalishini kuchaytiradi.

Umuman, kontent-tahlil natijalari Oliymahad.uz saytida psixologiya, axloq va ijtimoiy masalalar ustuvor o'rin tutishini ko'rsatdi. Fiqhiy materiallar son jihatdan kamroq bo'lsa-da, mazmunan ilmiy va tahliliy xarakterga ega.

"ziyo.uz" sayti O'zbekiston internet makonidagi yirik ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-ommabop elektron resurslardan biri hisoblanadi [17]. 2004-yilda tashkil etilgan sayt o'zbek tilidagi milliy kontentni rivojlantirish, elektron kutubxona fondini boyitish va foydalanuvchilarga ilmiy-ma'rifiy axborot yetkazishga xizmat qiladi. Sayt faoliyati davomida bir qator nufuzli mukofotlarga, jumladan, 2012–2014-yillarda "UZ milliy domeni" internet-festivalining "Fan va ta'lim sohasidagi eng yaxshi sayt" nominatsiyasidagi g'oliblik hamda 2013-yilda "Oltin qalam" milliy mukofotiga sazovor bo'lgan.

Saytda tarix, oila va jamiyat, siyosat, madaniyat va san'at, sport, suhbatlar hamda qiziqarli ma'lumotlar kabi bo'limlar mavjud. "Ilm va fan" bo'limida 1019 ta, "Tarix" bo'limida esa 467 ta material joylashtirilgani saytning gumanitar, ilmiy-ma'rifiy hamda tarixiy kontentga alohida e'tibor qaratishini ko'rsatadi.

«ziyo.uz» saytida joylangan maqolalarda quyidagicha bo'limlar qamrab olingan *(2026-yil 1-apreldan 30-aprel holatiga ko'ra)*:



Biroq 2025–2026-yillardagi faoliyat tahlili saytning ayrim bo‘limlarida yangilanish sur’ati sustlashganini ko‘rsatdi. Xususan, “Oila va jamiyat” bo‘limidagi oxirgi maqola 2021-yilda joylashtirilgan. Shuningdek, zamonaviy internet resurslari bilan taqqoslaganda, multimedia va interaktiv kontentning kamligi kuzatiladi. Shu sababli saytning boy tarixiy va adabiy bazasini saqlagan holda kontentni muntazam yangilash hamda multimedia imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Umuman, “ziyo.uz” O‘zbekiston kibermakonidagi muhim ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy elektron resurslardan biri bo‘lib, katta elektron kutubxona fondi, tarixiy va adabiy materiallari bilan ajralib turadi. Statistik tahlillar adabiyot va tarix yo‘nalishlari ustuvor ekanini ko‘rsatdi. Biroq ayrim bo‘limlarning yangilanmasligi va multimedia imkoniyatlarining cheklanganligi saytni zamonaviy auditoriya ehtiyojlariga moslashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. O‘zbekiston kibermakonidagi “uz” domenidagi diniy-ma’rifiy va ilmiy-ommabop saytlar milliy raqamli kommunikatsiya tizimining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Tadqiqotda tahlil qilingan “islom.uz”, “siyrat.uz”, “bukhari.uz”, “mehrob.uz”, “muslim.uz”, “religions.uz”, “oliymahad.uz”, “oyina.uz” va “ziyo.uz” saytlari diniy savodxonlikni oshirish, milliy va ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish hamda foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini qondirishda muhim o‘rin tutishi aniqlandi.

Tahlillar mazkur saytlarning asosan diniy-ma’rifiy, tarixiy, axloqiy va tarbiyaviy kontentga ixtisoslashganini ko‘rsatdi. “islom.uz” va “muslim.uz”da fiqh, aqida, axloq va ibodat mavzulari, “siyrat.uz” va “bukhari.uz”da tarixiy-diniy meros, siyrat va qo‘lyozmalar, “mehrob.uz” va “oliymahad.uz”da esa diniy bilimlarning psixologik, ijtimoiy va tarbiyaviy mavzular bilan uyg‘unligi ustuvor ekani kuzatildi. “oyina.uz” va “ziyo.uz”da tarix, adabiyot va milliy merosga oid materiallarning salmoqli ulushi milliy xotira va identiklikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

“religions.uz” esa din sohasidagi davlat siyosatini yoritish, diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlik g‘oyalarini targ‘ib qilishda muhim platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda. Umuman, tahlil qilingan saytlar diniy-ma’rifiy targ‘ibot bilan bir qatorda axloqiy tarbiya, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va ijtimoiy masalalarni ham yoritib, jamiyatning ma’naviy-madaniy rivojiga xizmat qiluvchi kommunikativ media maydon sifatida shakllangan.

Shu bilan birga, kelgusida multimedia va interaktiv kontentni kengaytirish, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, mobil auditoriya uchun zamonaviy xizmatlarni rivojlantirish va kontentni muntazam yangilab borish ushbu saytlarning samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot ishtirokchilarining hissasi. Tadqiqot jamoaviy ilmiy izlanish asosida amalga oshirilib, unda materiallarni yig‘ish, tasniflash, kontent-tahlil qilish va umumlashtirishda O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 1-kurs magistrlari Abdusalomova Nafosatbonu Isomiddin qizi (“oliymahad.uz”), Ibragimova Farangiz Ilhomjon qizi (“muslim.uz”), Norbo‘tayeva Zahro Faxriddin qizi (“ziyo.uz”), Odilova Dildoraxon Baxodirjon qizi (“bukhari.uz”),

Xakimxo‘jayeva Sevara Rashid qizi (“islom.uz”) hamda Xudayshukurova Madina Ikrom qizi (“mehrob.uz”) faol ishtirok etdilar. Ularning hissasi tadqiqotning empirik bazasini boyitish va tahlil qamrovini kengaytirishga xizmat qildi. Maqola mualliflari tadqiqotdagi samarali ilmiy hamkorlik uchun ularga minnatdorlik bildiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UZ milliy domeni yangi rekordga erishdi — 150 000 domen nomi! 13.03.2026. Manzil: https://cctld.uz/news/?detail=1601 (Murojaat sanasi: 30.05.2026)
2. Домену .UZ тридцать один — и мы перешагнули рубеж в 60 000 доменов под управлением. 29.04.2026. Manzil: https://www.ahost.uz/news/598 (murojaat sanasi: 30.05.2026)
3. https://islom.uz sayti
4. Shuhrat Shokirjonov. „Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning shogirdi 24 yildan buyon O‘zbekiston fuqaroligini kutmoqda“. Kun.uz (2018-yil 11-fevral). Qaraldi: 2025-yil 13-aprel
5. “islom.uz портали ҳақида”. «islom.uz». Qaraldi: 2025-yil 13-aprel.
6. “Onlayn so‘rovnoma: O‘zbekistondagi eng yaxshi internet-nashr, bloger va Telegram-kanal aniqlandi“. Kun.uz (2019-yil 11-noyabr). Qaraldi: 2025-yil 13-aprel.
7. “islom.uz” portalining mobil dasturi ishga tushirildi”. Daryo.uz (2018-yil 21-may). Qaraldi: 2025-yil 13-aprel.
8. https://t.me/siyrat_uz telegram sahifasi.
9. https://bukhari.uz sayti.
10. https://mehrob.uz sayti.
11. https://muslim.uz sayti.
12. https://oyina.uz sayti.
13. https://religions.uz sayti.
14. O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi. Diniy idoralararo axborot tizimi. https://diaat.uz/
15. https://oliymahad.uz sayti.
16. Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti rasmiy sayti [Elektron resurs]: https://oliymahad.uz/
17. https://ziyo.uz sayti.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694